

**BUXORO VILOYAT ZIYORATGOHLARI**

*Buxoro davlat pedagogika institute Aniq va tabiiy fanlar fakulteti  
«Geografiya» kafedrası dotsenti N.Sh.Shadiyeva  
«Geografiya» ta'lim yo'nalishi 2 bosqich talabasi - D.U.Ibotova*

**Аннотасија:** Мақолада Бухоро вилоятidagi тарихий қадамјolar soni haqida қisqacha ma'lumotlar ko'rsatilgan. Shuningdek viloyat turizm salohiyati va imkoniyati haqida ham so'z boradi. Yetti pirda turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Аннотация:** В статье приведены краткие сведения о количестве исторических памятников в Бухарской области. В нем также говорится о туристическом потенциале и возможностях региона. Рекомендации по развитию туризма были даны в одной из святынь Йетти Пир.

**Annotation:** The article shows information about the number of historical monuments in the Bukhara region. It also talks about the tourism potential and opportunities of the region. Recommendations for the development of tourism are given in one of the shrines, Yetti Pir.

**Kalit so'zlar:** Buxoro shahri, tarixiy yodgorliklar, yetti pir, ziyoratgoh, ziyorat turizmi, islom dini, tasavvuf ilmi

**Ключевые слова:** город Бухара, исторические памятники, семь пиров, паломнический туризм, исламская религия, мистика.

**Keywords:** city of Bukhara, historical monuments, seven piers, pilgrimage tourism, Islamic religion, mysticism

Buxoro- ko'p yillik tarixga ega zamin. O'zining tarixiy qadamjolari bilan hozirgi kunda ham dunyo mamlakatlarini lol qoldiradi. Shahar qadimdan ilm-fan markazlaridan biri bo'lganligi sababli, o'sha davrda juda ko'plab imoratlar, qadamjolar bunyod etilgan. Buxoroda ulug' siymolar, din ulamolari hayot kechirishgan. XX asr boshlarida tarixiy me'morchilik yodgorliklari 550 ga yaqin bo'lgan. Bir asr davomida sho'ro davrida bizning tariximizni yo'q qilmoqchi bo'lgan kimsalar tomonidan, yodgorliklarning ko'pi buzib tashlangan. Bugungi kunda shaharda 300 ga yaqin obidalar saqlanib qolgan. Hozirgi kunda 660 ta moddiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan. Bu Buxoroning qadimdan yirik shahar bo'lganidan dalolat beradi. Shahar ilm - fan, madaniyat markazi bo'lib qolmasdan, yirik yo'l ustida ham joylashgan. Buyuk ipak yo'lining shahar hududidan o'tishi, ko'plab binolar, karvonsaroy, masjid, madrasa, saroylar qurilishiga sabab bo'ldi. Ro'yxatga olingan yodgorliklarning 364tadan 47ta masjid, 14ta karvonsaroy, 39ta madrasa, 8ta maqbara kimgizilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra Buxoro hududida hovuzlar ko'p bo'lgan. XIX asr hujjatlarida 300dan ortiq hovuz bo'lganligi qayd etilgan. Bu ham shahar ko'rkiga yanada chiroy baxsh etaveradi.

Buxoro hududidagi tarixiy yodgorliklarga: Buxoro Arki, Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Poyi Kalon ansambli, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Mir Arab, Chor Minor, Labi hovuz ansambli. Bu yodgorliklarni jami 140dan ortiq ekanligi aniqlangan.

### Saqlangan yodgorliklar nomi

№	Saqlangan yodgorliklar nomi	Saqlangan yodgorliklar soni
1	Maqbara	8
2	Masjid	47
3	Karvonsaroy	14
4	Madrasa	39
5	Monumental asarlar	19
6	Arxitektura ansambli	22
7	Diqqatga sazovor joylar	24
8	Arxologiya obyektleri	231
9	Hovuzlar	300 dan ortiq
	<b>Jami</b>	<b>660 ta</b>

Buxoro- Naqshbandiya tariqati, yetti buyuk so'fiylarning vatani. Tasavvufning buyuk namoyondalari bu yerda yashab, islom diniga katta hissa qo'shishgan. Shuning uchun Buxoro azaldan muqaddas zamin sanaladi. Jahon mamlakatlaridan Buxoroga 7 pini ziyorat qilish uchun tashrif buyuruvchi sayyohlar soni ko'pchilikni tashkil qiladi.

Yetti pirlar: Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoni, Xo'ja Muhammad Orif ar-Revvari, Xo'ja Ali Romitani, Xo'ja Muhammad bobo Samosiy, Xo'ja Sayyid Amir Kulol, Bahouddin Naqshbandiy.

2020-yil Buxoro "Islom olami madaniyati poytaxti" - deb e'lon qilindi. Bu shahardagi tarixiy manzillarga bo'lgan tashrif buyuruvchilar sonini yanada ko'paytiradi.

Buxorodagi 7 ta: Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Bakr, Bahouddin Naqshband majmualari, Mag'oki Attor masjidi, Poyi Kalon ansambli, qadimgi Poykent shahri qoldiqlari va Tosharoy madrasalari ICYeSCOning " Islom olami merosi" ro'yxatiga kiritildi. Mazkur obidalarni restavratsiya qilish, jahon bo'ylab sayyohlar oqimini kuchaytirish bo'yicha kelishuv imzolangan.

BMTning ilm - fan va madaniyat ishlari bo'yicha tashkiloti YUNESKOning " Butunjahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan tarixiy obidalarning yarmi Buxoro viloyatiga tegishli. Buxoroda tarixiy

yodgorliklarning bunchalik ko'p bo'lishiga yana bir sabab 1930-yilgacha shahar poytaxt vazifasini ham bajarganligidir.

Buxoroda ziyoratgohlarga hozirgi kunda juda katta e'tibor berildi. Viloyatning turizm salohiyati kengaytirildi.

Jumladan "Yetti pir" majmuasi hududlarida zamonaviy sharoitga ega bo'lgan mehmonxonalar qurilishi ziyoratgohlar atrofi obodonlashtirilishi, ziyorat turizmiga bo'lgan e'tibordan dalolat beradi.

Yoz oylarida turizm mavsumida " Labi hovuz", " Mohi xossa" kabi hududlarda turli bayram kechalari, konsertlar, teatrlashtirilgan sahna tomoshalari sayyohlarga tashkillashtirildi. Bu bizning milliy an' analarimiz, bayram va marosimlarimizni namoyish etishga imkon beradi. Shu bilan birga "Ipak va ziravorlar", "Buxoro hunarmandlari" festivali mahsulotlarimizni chet mamlakatlarga eksport qilish, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga o'z samarasini qo'shadi.

Bugungi kunda Buxoro ziyoratgohlariga tashrif asosan Germaniya, Fransiya, Turkiya, Italiya, Rossiya kabi mamlakatlardan kelishmoqda.

Yetti pirga shu hududda yashovchi aholi ham tez-tez ziyoratga borishadi. Chet ellik sayyohlar ham yetti piri aylanib, tomosha qilish istagi ham kundan kunga ortib bormoqda. Shuning uchun 7 ta ziyoratgohga borib, aylanib kelish davomida turli muammolar bo'lishi mumkin, ulardan biri ovqatlanish shaxobchalarining kamligi. Faqatgina aholi gavjum hududlarda emas, balki yo'l ustida ham bu obyektlarni qurish, xushmanzara joylarni tashkil etish lozim. Shahobchalarni o'zimizning milliy an'analarga mos qilib tashkil etish orqali turistlarni yurtimizga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Bu turizmni kengaytirishga, iqtisodiyotga ham o'z ta' sirini ko'rsatadi

#### **Foydalaningan adabiyotlar:**

1. Bahromov Q. Jo'rayeva M. Buxoro viloyati tarixiy obidalari va ziyoratgoh manzillari. Buxoro 1995.
2. Vamberri H. Buxoro yoki Movarounnahr tarixi Toshkent "Fan" 1991.
3. H.Murodov.Buxoroda turizmning rivojlanish tarixi.-Toshkent 2023-151b
4. F.Bobojonova.Buxoro me'moriy obidalari tarixi- Buxoro 2022 – 285b